

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari uchun

QO'LLANMA

Dars rejasi:

Mavzu: “Korrupsiya (poraxo'rlik) insofsiz va vijdotsiz xulq-atvor shakllaridan biri sifatida”

Fan: Davlat va huquq asoslari

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Sinf: 10-sinf

Dars maqsadi:

1. Korrupsiya va poraxo'rlik tushunchasini tushuntirish, insofsiz va vijdotsiz xulq-atvor sifatida qanday paydo bo'lishi haqida bilim berish.
2. Kundalik hayotda korrupsiyaviy holatlarning qanday namoyon bo'lishini tushuntirish va ularga nisbatan ogohlik hissini shakllantirish.
3. Korrupsiyaning oqibatlari va uning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy zararlari haqida ma'lumot berish.
4. O'quvchilarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish tuyg'ularini shakllantirish.
5. Korrupsiya(poraxo'rlik)ning ijtimoiy tahdid ekanini o'quvchilarga tushuntirish orqali ularning mas'uliyatini oshirish.

Kutilayotgan natijalar:

1. O'quvchilar korrupsiya va poraxo'rlik tushunchalarini aniq va to'g'ri tushunadi.
 2. O'quvchilar kundalik hayotda korrupsiyaviy holatlar belgilarini ajrata oladi.
 3. O'quvchilar korrupsiyaning oqibatlarini tushunishadi va buning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy zararlari haqida tahlil qila olishadi.
 4. Keys va kazuслar orqali korrupsiyaning ishlash mexanizmlarini va unga qarshi kurashish yo'llarini baholashni o'rganishadi.
 5. O'quvchilar korrupsiyaga qarshi qanday yordam berish va buning oldini olishdagi ijtimoiy mas'uliyatni sezishadi.
-

Metodlar:

- **Suhbat:** Korrupsiya tushunchasi, uning jamiyatga ta'siri, korrupsiyaga qarshi kurashish usullari haqida o'quvchilar bilan fikr almashish.
 - **Hayotiy vaziyat (keys):** Korrupsion holatlarni tahlil qilish, yechim topish.
 - **Blits so'rov:** Savol-javob orqali o'quvchilarning bilimlarini tekshirish.
 - **Hikoyalar:** Korrupsiyaning hayotiy misollari va uning oqibatlari haqida voqealarni tinglash.
 - **Bilimlarni mustahkamlash:** O'quvchilarning olgan bilimlarini sinovdan o'tkazish.
-

Foydalanadigan materiallar:

- **Taqdimot:** Korrupsiya tushunchasi, belgilar, oqibatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari haqida ma'lumotlar.
 - **Kartochkalar:** Korrupsiya haqida savollar va holatlar, foydalanish uchun mavzuga oid keyslar.
-

Dars qismlari:

1. Kirish (5 daqiqa)

- **O'qituvchi:**
 - "Korrupsiya – bu jamiyatdagi ko'plab muammolarning asosiy sababi. Bugungi darsda korrupsiyaning tushunchasi, uning kundalik hayotdagi yorqin misollari, oqibatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari haqida gapiramiz."
 - Savol: "Korrupsiyani qanday tushunasiz? Unga qanday holatlarni kiritish mumkin?"

2. Korrupsiya tushunchasi (10 daqiqa)

- **Ta'rif:**
 - "Korrupsiya – bu mansabdorning o'z lavozimi yoki vakolatidan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishi."
 - "Korrupsiya insofsiz va vijdotsiz xulq-atvor shakli sifatida, insonlar orasida ishonchsizlik va adolatsizlikka olib keladi."
- **Savol:** "Korrupsiya haqida sizga qanday misollar keladi?"

3. Kundalik hayotda korrupsion holatlar (10 daqiqa)

- **Ta'rif:**

- “Korrupsiya kundalik hayotda turli shakllarda namoyon bo‘ladi: davlat organlarida pora olish, imtihonlardan o‘tish uchun pora berish, ishga kirishda tanishlar orqali imtiyozlarga ega bo‘lish va hokazo”.

- **Misollar:**

- “Test sinovlarida yaxshi baholar olish uchun pora berish.”
- “Tizimdagi odamlar yordami bilan musobaqalarda g‘olib bo‘lish.”

- **Savol:** “Korrupsiyaga aybdor kim?” (Qaysi taraflar aybdor: mansabdor shaxs yoki pora olishni taklif etgan shaxs?)

4. Korrupsiyaning oqibatlari (8 daqiqa)

- **Ta’rif:**

- “Korrupsiya jamiyatdagi adolatsizlikni kuchaytiradi, iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi.”

- “Shuningdek, korrupsiya inson huquqlarini poymol qiladi va umumiy axloqni buzadi.”

- **Misollar:**

- “Korrupsiya oqibatlaridan biri – davlat manfaatiga yetkazilayotgan zarar.”

- “Korrupsiya oqibatlari iqtisodiy hayotga qanday ta’sir ko‘rsatadi?”

5. Hayotiy vaziyat (keys) (7 daqiqa)

- **Vaziyat:**

- “17 yoshli Davron yoshlarga chet elda amaliyot o‘tash dasturida ishtirok etishni orzu qiladi. Unga ish haqi yoki tajriba dasturi bilan bog‘liq bo‘lgan imkoniyatlar juda muhim, chunki u kelajagi uchun yaxshi ish topishni va universitetga kirish uchun tajriba jamlashni istaydi. Biroq ushbu dastur faqat ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar farzandlari uchun mo‘ljallangan. Davronning oilasi ijtimoiy yordamga muhtoj emas, shu sababli u pora evaziga oilasi ijtimoiy yordamga muhtojligi to‘g‘risida hujjatlarni tayyorladi va dasturda qatnashish uchun hujjatlarini yubordi.”

- **Savol:** “Bu holatda kim aybdor? Qanday choralar ko‘rish mumkin?”

- “Bu holat jamiyatning iqtisodiy hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?”

6. Blitz so‘rov (3 daqiqa)

- **Savollar:**

1. “Korrupsiyani aniqlash uchun qanday belgilar bo‘lishi mumkin?”
2. “Korrupsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy zararlari nimada?”
3. “Korrupsiyaga qarshi qanday choralar ko‘rish kerak?”

7. Yakuniy xulosa (3 daqiqa)

- **O‘qituvchi:**

○ “Korrupsiya jamiyatning barqarorligini buzadi va insofsizlikni kuchaytiruvchi muhim omildir. Biz bu masalada faol bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashishga va odillikni ta’minlashga harakat qilishimiz kerak.”
